

**THE METHODOLOGY OF EXPLAINING GRAMMATICAL RULES IN ALFIYA BY IBN MALIK****Avazbek D. Ochilov***Arabic Language Translation Theory and Practice**Uzbekistan State World Languages University*avazbekochilov2001@gmail.com*Tashkent, Uzbekistan***Usmonjon K. Ermatov***Senior Lecturer, Department of Arabic Language Translation Theory and Practice**Uzbekistan State World Languages University*Uzdil59358@gmail.com*Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: Arabic grammar, Alfiya, Ibn Molik, methodology, nahw studies, Arab tribal dialects, rare forms, irregular cases.

Received: 08.05.26**Accepted:** 09.05.26**Published:** 10.05.26

Abstract: This article analyzes the methodological approaches used in one of the most important works on Arabic grammar, Alfiya, written by Ibn Molik. Although the grammatical rules are presented in a poetic form, the author managed to organize them in a clear, consistent, and logical structure. The study examines the main methods employed by the author to explain grammatical rules, including the use of word order changes to emphasize priority, references to the dialectal features of certain Arab tribes, and the explanation of rare and irregular cases. The findings indicate that this work serves as an important scholarly source for the comprehensive study of Arabic grammar.

**IBN MOLIK “ALFIYYA” ASARIDAGI QOIDALARNI SHARHLASH
METODOLOGIYASI****Avazbek D. Ochilov***Arab tili tarjima nazariyasi va amaliyoti**kafedrası o'qıtuvchisi**Davlat jahon tillari universiteti*avazbekochilov2001@gmail.com*Toshkent, O'zbekiston*

Usmonjon K. Ermatov

Arab tili tarjima nazariyasi va amaliyoti

kafedrasi katta o'qituvchisi

Davlat jahon tillari universiteti

Uzdil59358@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: arab tili grammatikasi, Alfiya, Ibn Molik, metodologiya, nahv ilmi, arab qabilalari lahjalari, shoz holatlar, nodir misollar.

Annotatsiya: Ushbu maqolada arab tili grammatikasining muhim manbalaridan biri bo'lgan Alfiya asarida qo'llanilgan metodologik yondashuvlar tahlil qilinadi. Asar muallifi Ibn Molik grammatik qoidalarni she'riy shaklda bayon qilgan bo'lsa-da, ularni aniq, izchil va mantiqiy tizim asosida taqdim etgani bila ajralib turadi. Tadqiqotda muallif tomonidan grammatik qoidalarni tushuntirishda qo'llangan asosiy usullar, jumladan, so'z tartibini o'zgartirish orqali ustuvorlikni ko'rsatish, arab qabilalari lahjalariga oid xususiyatlarni keltirish, kam uchraydigan va nodir (shoz) holatlarni izohlash kabi metodologik jihatlar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, asarda grammatik qoidalar o'rtasidagi bog'liqlikni ochib berish va nazariy bilimlarni tizimli ravishda o'zlashtirishga xizmat qiluvchi ilmiy yondashuvlar yoritiladi. Tadqiqot natijalari Alfiya asari arab tili grammatikasini o'rganishda muhim ilmiy manba ekanini ko'rsatadi.

МЕТОДОЛОГИЯ ОБЪЯСНЕНИЯ ГРАММАТИЧЕСКИХ ПРАВИЛ В ПРОИЗВЕДЕНИИ АЛФИЙЯ ИБН МАЛИКА

Авазбек Д. Очиллов

Преподаватель кафедры теории и практики перевода арабского языка

Узбекский государственный университет мировых языков

avazbekochilov2001@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

Усмонжон К. Эрматов

Старший преподаватель кафедры теории и практики перевода арабского языка

Узбекский государственный университет мировых языков

Uzdil59358@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: арабская грамматика, Alfiya, Ibn Molik, методология, наука нахв, диалекты арабских племён, **Аннотация:** В данной статье анализируются методологические подходы, использованные в одном из

редкие формы, шазз случаи.

важнейших трудов по арабской грамматике - Алфийя, автором которого является Ибн Малик. Несмотря на то, что грамматические правила изложены в поэтической форме, автору удалось представить их в последовательной и логически выстроенной системе. В исследовании рассматриваются основные методы объяснения грамматических правил, применяемые автором, включая изменение порядка слов для подчеркивания приоритетности, обращение к особенностям диалектов арабских племён, а также объяснение редких и отклоняющихся (шазз) форм. Результаты исследования показывают, что данный труд имеет важное значение для глубокого изучения арабской грамматики.

Kirish. Metodologiya muallif o'z asarini yozishda qo'llagan yondashuvidir. Yo'nalishi va mazusidan qat'iy nazar har bir asar o'ziga xos metodologiya asosida bitilgan hisoblanib, uni o'rganish ilmiy sohadagi yangi yutuqlarga erishish imkonini beradi. Jumladan, arab tili grammatikasiga oid ilmiy asarlardagi mualliflarning yondashuvini tadqiq etish soha vakillari uchun yuqori ahamiyat kasb etadi.

Asar nasriy shaklda yozilgan bo'lsa, uni tushunish va yondashuvni aniqlash nisbatan oson bo'lishi, ammo ibn Molikning "Alfiya"si kabi she'riy shaklda yozilgan bo'lsa, uning tuzilishini anglash va muallif metodologiyasini o'zlashtirish murakkabroq kechishi ma'lum. Bunday tadqiqot she'riy uslubda yozilgan ilmiy matn o'rganuvchilariga uchun ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, matn samaraliroq o'zlashtirilishida qo'l keladi.

Nasriy uslubda yozilgan asarlarda, odatda, muallif metodologik yondashuvini asarning kirish qismida tushuntirib o'tadi. She'riy kitoblar esa odatda "Allohga hamd aytish" va Payg'ambar (s.a.v)ga salovot va salom yo'llash bilan boshlanib, muallif to'g'ridan-to'g'ri mavzuga kirishib ketadi, o'z metodologiyasini alohida izohlab o'tmaydi. Bu xususiyat ibn Molikning "Alfiya"sida ham yaqqol namoyon bo'ladi. U asarni Allohga hamd va Payg'ambar (s.a.v)ga salovot bilan boshlaydi. So'ng o'z shaxsiy hayotiga qisqacha to'xtalib, nutq turlari va ularning tarkibiy qismlarini ilmiy tahliliga kirishadi. Ibn Molik asarni kirish qismidan boshlab, qoidalar mohiyatini aniq va lo'nda ifodalar orqali ochib bergan, grammatika qoidalarni izchil va mantiqiy tartibda joylashtirilgan. Ushbu yondashuv ilmiy tushuncha va grammatik tamoyillarning o'zaro bog'liqligini ta'minlaydi, natijada, talabalarga nazariyani puxta o'zlashtirish imkonini yaratadi. Shuning uchun "Alfiya" kitobini ta'lim olayotgan talaba matnni chuqur o'rganishi, har

bir baytning mazmunini sinchkovlik bilan tahlil qilishi va muallif metodologiyasini anglash uchun asosiy tamoyillarga tayanishi zarur.

Adabiyotlar tahlili va metod. G‘arb olimlaridan F.H.Dieterici, S.Glazer, K.Versteeg, S.Haryonto, J. Stephen kabologiyai tadqiqotchilar o‘z maqolalarida Ibn Molikning arab olamidagi yuksak o‘rnini e’tirof etish bilan birga Ibn Molikning qoidalarida Basra va Kufa maktablari unsurlari qiyosiy o‘rganishgan. Arab olimlaridan esa A.Dabboh, B.Zarkan, A.H.Faqih, S. Zahroniy (F. H. Dieterici. In der traditionellen arabischen Poesie muss in einem Alfiya. Berlin: Stocholm, 1851; S. Glazer. The Alfiyya of Ibn Malik: Its Importance and Place in Arabic Grammatical Science // The Muslim World, 1941; K. Veerstegh. Learning Arabic in the Islamic World // university of Nijmegen. - Santh Joseph XL/V9 2018, Greek Elemnts in Arabic Linguistic Thinking // university of Nijmegen. - Santh Joseph XL/V3 1997; S. Haryonto. Nazam Alfiyyah Ibn Malik: Structure and Function of Arabic Didactic Poetry for Islamic Boarding School Communities // Te world of Islam: stidies in honour of Philip Hitti. - London: 2024; J. Stephen. Some of the examples of Alfiyya ibn Malik to claritf the grammatical Rules // university of Bagdad: al-ustath Jornal. - 2023; Abd al-Rahman ibn Hasan al-Faqih, Al-Tahqiq al-Nahwi li-Qawa‘id al-Fi‘l fi Alfiyyat Ibn Malik, 2020. – Saudi Arabia: Umm al-Qura University). “Alfiyya” asarida qo‘llanilgan fe’llarning turli kelishiklarda kelishi sabablari, ularning baytlarda tutgan sintaksis o‘rni va semantikasi borasida zamonaviy grammatik mezonlarga qiyoslagan holda magistrlik desertatsiyalarini yoqlash bilan bir qatorda bir necha maqolalar ham chop etishgan. Yuqorida sanab o‘tilgan tadqiqotlarning ba’zilarida “Alfiyya”da berilgan كان (kana) va unga o‘xshash fe’llar qoidalari hamda qoidalarning sharhlash uslubi boshqa kitoblarga qiyoslanib, unga nisbatan tor doirada qisqa izoh berib o‘tib ketilgan yoki ularga tarixiy aspekt jihatidan yondashilgan bo‘lsada, aynan shu mavzuni atroflicha yoritgan ilmiy ishni ko‘rmaymiz. Ushbu maqola tadqiqotida tavsifiy, tarixiylik, deduktiv, komparativ analiz, kontekstual semantik tahlil, tipologik metod, qiyosiy-lisoniy metodlaridan foydalanildi.

Natijalar. A. Ustuvorlik yoki maxsuslik holatlarini ifoda etish maqsadida ba’zi so‘zlarni gap tarkibida oldinga o‘tkazish uslubi.

1. Sifatdoshning sintaktik ta’siri bobidagi bayt:

وانصبُ بذِي الإِعْمَالِ تَلَوًا وَ اِخْفَاضًا
وَهُوَ لِنَصْبِ مَا سِوَاهُ مُقْتَضِي

(O‘timli fe’ldan yasalgan) sifatdoshdan keyingi to‘ldiruvchini tushum kelishiga qil, yoki qaratqichga o‘tkaz (izofa qil). Aslida esa sifatdosh to‘ldiruvchini talab qiladi, izofa hosil qilish grammatik to‘g‘ri bo‘lsa-da, asl emas”.

Bu baytda ibn Malik o'timli fe'ldan yasalgan sifatdosh o'zi ta'sir etayotgan to'ldiruvchi bilan qanday holatda bog'lanishi mumkinligini tushuntirib, ikki holatni keltiradi:

هذا ضاربٌ زيدٍ – Bu – Zaydni uruvchidir (sifatdosh o'z to'ldiruvchisi bilan izofa(moslashmagan aniqlovchi) hosil qilgan)

هذا ضاربٌ زيدًا – Bu – Zaydni urmoqda (to'ldiruvchi o'z kelishigi - tushum kelishigida kelgan).

Ushbu baytda “انصب” fe'lini gap tarkibida ilgari surib ishlatish orqali Ibn Molik sifatdoshdan so'ng to'ldiruvchini tushum shaklida keltirish – asl holat ekanini, izofa holati esa to'g'ri, lekin aslga zid ekanini ta'kidlaydi (Zayd Abd al-Rahman ibn Ali, 2005, p. 118.).

Demak, so'zni oldinga o'tkazish uslubi orqali tushum kelishik shakli qo'llanilishi to'g'riroq ekanini e'tirof etmoqda.

2. Nido (chaqiriq) bobidagi bayt:

وأضمم أو انصب، ما اضطرارًا نونا
مما له استحقاقٌ ضمٌّ بيّنًا

“Undalmani domma (bosh kelishik affiksi) bilan talaffuz qil, majbur bo'lsang, fatha qil (tushum kelishik affiksi) da ifodala, lekin domma bilan ifodalash – afzal shakl hisoblanadi”.

Bu baytda nidoni qanday holatda keltirish mumkinligi haqida so'z bormoqda: agar ism qasd qilingan noaniq shakldagi ot yoki atoqli ot bo'lsa, shoir qofiyani moslashi kabi ma'lum sabablarga ko'ra undalmani bosh kelishik affiksi yoki tushum kelishigi affiksi bilan ham ifodalasa bo'ladi (Zayd Abd al-Rahman ibn Ali, 2005, p. 150). Masalan:

يا زيدُ – Ey Zayd! (bosh kelishik affiksi – asl holat)

يا زيدًا – Ey Zayd! (tushum kelishigi affiksi – zaruratda)

Ibn Molik bu baytda “وأضمم” (domma bilan ayt) so'zini avval keltirib, bu shaklni ustuvor deb ko'rsatmoqda. Demak, domma bilan aytish – tanlanadigan shakl (asl holati), mansub shakl – zarurat yuzasidan mumkin shakl.

B. Ba'zi arab qabilalari lahjalaridagi xususiyatlarini ifoda etish.

Ibn Molik “Alfiya”ning ba'zi boblarida ikki grammatik hukmni farqini ajratish yoki biror qoidani izohlash uchun gohida ayrim arab qabilalari dialektlarining o'ziga xos xususiyatlariga ham alohida to'xtalib o'tgan:

1. Mavsul (qo'shma gap hosil qiluvchi yuklamalar) bobidagi bayti:

Ibn Molik aytadi:

ومن وما، وألّ تساوي ما دُكِرُ
وهكذا ذو عند طَيِّ شهرُ

“*من, ما* va *أل* so‘zlari ilgari bayon etilgan *اللذي, اللتي* va ularning ko‘plik shakllari bilan (grammatik jihatdan) teng bo‘ladi. Shuningdek, *ذو* so‘zi ham Toy qabilasi tilida ana shunday uslubda qo‘llaniladi ishlatiladi”.

Bu baytda Ibn Molik *ذو* so‘zining ikki xil ishlatilishini ajratib ko‘rsatmoqda:

Barcha e’tirof etiladigan ilmiy manbalarda *ذو* so‘zi kelishiklarda ma’lum o‘zgarishlarga uchraydigan oltita ismdan biri sifatida ta’riflanib, egalik ma’nosini bildiradi, masalan: *ذو مال* – mol egasi.

Toy qabilasida esa u so‘z qo‘shma gap hosil qiluvchi yuklama sifatida ishlatilinishi ayon bo‘ldi. Demak, *ذو* so‘zining dialektga oid farqlari mavjud.

2. *ظن* (gumon qilish) bobidagi bayti:

وَأَجْرِي الْقَوْلَ كَظَنِّ مُطْلَقًا،
عند سُلَيْمٍ، نحو: قُلْ ذَا شَفَقًا

“So‘z aytish fe’li (*القول*) Sulaym qabilasi tilida mutlaq holatda gumonni bildiruvchi fe’l (*ظن*) kabi ishlatiladi (ya’ni hech qanday shartlarsiz), masalan: U rahmli, deb ayt”.

Bu yerda arab qabilalarining orasida ba’zi grammatik farqli tushunchalar borligi bayon qilinmoqda:

Ko‘pchilik arab qabilalari: *القول* ma’nosiga mansub fe’llar *ظن* kabi ishlatilishi uchun quyidagi shartlar topilishi keraklini aytadi:

fe’l hozirgi zamonda bo‘lishi

ma’no ikkinchi shaxsga qarata aytilishi

savol predlogidan keyin kelishi

savol bilan fe’l orasiga biron so‘z tushib qolmasligi

Sulaym qabilasida *القول* ma’nosiga mansub fe’llar hech qanday shartlarsiz *ظن* kabi ishlatilishi mumkin.

D. Ba’zi qoidalar va hukmlarda “kam uchraydigan holatlar”ni bayon etish.

Ibn Molik “Alfiyya” asarining ko‘plab joylarida ba’zi qoidalarining kam uchraydigan holatlariga ham alohida e’tibor qaratadi. Buning uchun muallif “قد” hozirgi zamon fe’li, “رَبْمَا” orqali yoki “النزر” (ozchilik) so‘zlaridan foydalansa-da, ko‘pincha ba’zi *قل* yoki *قليل* kabilarni qo‘llaydi.

Ibn Molik “kam uchraydigan holat” deganda bir qancha ma’nolarni nazarda tutadi:

a. katta olimlar birdek qabul qilgan joizlik hukmi

b. ma’lum bir qabila lahjasi

c. g’ayrioddiylik (nodirlik) (Al-Ashmuni, 2000, p. 392)

1. Kelishiklarning affikslarini qabul qilmaydigan so‘z turlari bobidagi bayti:

وَأُونُ مَجْمُوعٍ وَمَا بِهِ التَّحْقُ
فَأَفْتَحُ، وَقَلَّ مِنْ بَكْسِرِهِ نَطَقُ

“Jamlik qo‘shimchasi bo‘lgan nun harfi va unga o‘xshashlar fatha bilan keladi, lekin kasra bilan ishlatilishi juda kam uchraydi”.

Ibn Molik ushbu baytda to‘g‘ri muzakkar ko‘plikning nun harfi fatha bilan ifodalanishi kerakligi, kasrani qabul qilishi faqatgina ba‘zi dialektlardagina mavjudligi haqida aytadi. U mazkur holatni boshqa asari – “Kofiya ash-Shofiya”da quyidagicha tushuntiradi:

“Jamni bildiruvchi nun – ikki kishilik ismlardek fathada ifodalanadi, kasra bilan ifodalanishi esa bir dialekt xususiyatidir (Jamal al-Din ibn Abd Allah, 2009, p. 200.)”.

Demak, bu holatda kamyob holat – muayyan qabilaning lahjasi xususiyati sifatida ko‘rsatilgan.

2. Otlarni aniq va noaniq shakllari bobidagi bayti:

وَفِي لَدُنِّي، لَدُنِّي، قَلَّ وَفِي

(Sulayman ibn Abd al-Aziz, n.d., p. 79) قَدْنِي، وَقَطْنِي، الْحَدْفُ أَيْضًا قَد يَفِي

“Ladunniy, laduniy, qadni va qatni kabi so‘zlarda “himoya nuni (نون الوقاية)”ni tushirish kam hollarda uchraydi, lekin ba’zida joiz bo‘ladi”.

Ibn Molik bu holatni “at-Tashil” nomli asarida quyidagicha izohlaydi:

“Ladun so‘zidan himoya nunining tushirilishi joiz hisoblanadi”.

Demak, bu holatda kamyob holat – joizlik ma’nosida ishlatilgan.

3. Mavsul bobidagi bayti:

وَصِفَةٌ صَرِيحَةٌ صِلَةٌ أَلْ،

وَكُونُهَا بِمُعْرَبِ الْأَفْعَالِ قَلَّ

“Al artikli otlarga qo‘shiluvchi qo‘shimchadir, u mayl affikslarini qabul qiluvchi fe’l (hozirgi-kelasi zamon fe’li) bilan kelishi – juda kam holatdir”.

Ushbu baytda ibn Molik Al anqlik artilining hozirgi-kelasi zamon shakliga kirishi shoz (nodir) holat ekanini ifodalaydi.

Boshqa asari “Kofiya ash-Shofiya”da bu holatni quyidagicha ta’riflaydi:

“Bunday ishlatish shoz (شذوذ) – nodir holatdir, masalan: الحكم الترضي (hukm rozi qiladigan (qaror bo‘ladi))”.

Demak, bu o‘rinda kamyob holat – g‘ayrioddiylik yoki shozlik ma’nosida ishlatilgan.

E. Shoz (nodir) masalalarga to‘xtalib o‘tish.

“Alfiya” asari “Kofiya ash-Shofiya”ning ixcham shakli sifatida yozilgani ma’lum. Ibn Molik unda mashhur va keng tarqalgan qoidalarni bayon qilishga harakat qilgan bo‘lsa-da, shoz (nodir) masalalarga ham to‘xtalib o‘tgan.

Bu orqali ibn Molik shoz darajasidagi eshutilgan matnlar (rivoyatlar) arablardan tilma-til yetib kelgan bo'lsa, ular umumiy qoidaga zid ekanini ta'kidlab, ularni qabul qilinishi mumkin, degan fikrni ilgari suradi.

Ibn Molik keltirgan ana shunday nodir masalalar arab tili grammatikasining daqiq qirralarini kashf etilishida alohida xizmat qiladi.

1. Kelishiklarning affikslarini qabul qilmaydigan so'z turlari bobidagi bayti:

أولو، و عالمون، عليوننا

(Sulayman ibn Abd al-Aziz, n.d., p. 120) وأرضون، شدّ، والسنونا

“Olu (أولو), ‘alimun (عالمون), ‘illiyuna (عليون) va ardu (أرضون) hamda sunun (السنونا) – shoz (nodir) shakllardir”.

“Ardun” – “ard” (yer) so'zining ko'pligi, “sunun” esa “sana” (yil) so'zining ko'pligi, “‘illiyuna” – yunonlar nazdida osmonning eng yuqori qismi, “alamuna” – “olam” so'zining ko'pligi.

Har bir so'z oddiy qoidalarga ko'ra to'g'ri muzakkar ko'plik shaklida yasalishi uchun kerakli shartlarga ega emas. Shuning uchun ibn Molik ularni shoz holatlar sifatida ko'rsatadi.

U mazkur fikrni “Kofiya ash-Shofiya” asarida quyidagicha bayon qiladi: “Bunday misollar yodda saqlanadi, lekin ular asos qilib olinmaydi” (Jamal al-Din ibn Abd Allah, 2009, p. 193).

2. Foil (fe'l kesimli gap egasi) bobidagi bayti:

وشاع نحو: خاف ربه عمر

وشد نحو: زان ثوره الشجر

“Xofa robbahu Umar” (Umar Parvardigoridan qo'rqdi) – odatiy shakl, ammo “Zana nuruhu ash-shajar” (Uning nuri daraxtni bezadi) – shoz ishlatishdir”.

Bu yerda “zana nuruhu ash-shajar” jumlasida “hu” (uning) olmoshi “nur” (nur – foil) so'ziga bog'langan.

Lekin olmosh matnda undan keyin kelayotgan to'ldiruvchi – “ash-shajar” (daraxt)ga ishora qilmoqda.

Bu holat “lug'aviy tartib (lafzan) va grammatik holat (rutban)”ga zid bo'lib, shoz hisoblanadi.

Ibn Molik mazkur holatni Kofiyada quyidagicha izohlaydi:

“Zana nuruhu ash-shajar” – bu kam uchraydigan holatdir. (قَل)... Garchi bu tarzda ishlatish yaxshi ko'rilmasa ham, mutlaqo man etilmaydi”. (Jamal al-Din ibn Abd Allah, 2009, p. 583)

Ya'ni, arab tili olimlari ushbu shakl qo'llanilishini to'g'ri deb hisoblamasalar ham, butkul inkor etmaydilar.

3. Izofa (moslashmagan aniqlovchi) bobidagi bayti:

كوحد، لبي، ودوالي، سغدي
وشدّ إيلاء، يدي، للبي

“وحد” (yolgʻizlik), “لبي” (quloq solaman), “davalī” kabi soʻzlar olmoshga moslashmagan aniqlovchi sifatida qoʻshilishi (izofa qilinishi) mumkin: masalan: وحك (yolgʻiz sen), لبيك (men hozirman). ammo ularning ismga qoʻshilishi shoz holatdir, masalan: لبي زيد – bu shozdir”.

Ibn Molik bu baytda “labbay” (quloq solaman) kabi mashhur iboralar odatda olmoshga izofa qilinishiga, yaʼni “labbayka” – “men hozirman (sen uchun)”, lekin ularni otlarga izofa qilish, masalan “labbay Zayd” (Zayd uchun hozirman) – shoz va gʻayrioddiy hisoblanishiga toʻxtalmoqda.

U mazkur holatni “Kofiya”da الغرابة – “gʻalati” deb atab, “Qoida jihatidan mumkin, ammo odatda ishlatilmaydi” deb taʼriflagan. (Jamal al-Din ibn Abd Allah, 2009, p. 930)

F. Nodir (kam uchraydigan) masalalarga toʻxtalib oʻtish.

Ibn Molik “Alfiyya”sida nodir nahv masalalarini ham eʼtibordan chetda qoldirmagan. Balki ayrim boblarda bunday holatlarni alohida yoritgan. Taʼkidlash kerakki, ibn Molik “Nodir”lik (الندرة) deya koʻpincha “shozlik” (الشذوذ) maʼnosini nazarda tutadi, yaʼni bunday holatlar qoidalarga asoslanmaydi, alohida qoida sifatida namayon ham boʻla olmaydi.

1. Yaqinlikni ifodalovchi feʼllar bobidagi bayt

ككان كاد وعسى، لكن ندر

(Sulayman ibn Abd al-Aziz, n.d., p. 92) غَيْرُ مَضَارِعٍ لِهَذِينَ حَبْرٌ

“Kad va eʼsi feʼllari bogʻlanib kelgan kesim odatda hozirgi zamon feʼli boʻladi. Ot shaklida kelish holati esa nodir – shozdir”.

Ibn Molik bu yerda ish harakat sodir boʻlishi yaqin ekanini ifodalovchi feʼllar - كاد (yaqin edi), عسى (umid qilmoq) kabi feʼllar bogʻlanib kelgan kesim – feʼl boʻlishi kerakligini bayon qilib, ot shaklida kelishi juda kam uchraydigan holat hisoblanishini ham eslab oʻtmoqda. Bu holatni “Kofiya ash-Shofiyya” asarida quyidagicha ifodalagan:

“Xabarning ism holatida kelishi – shoz (nodir holatdir), bunday misollar qoidalar asoslanmaydi (Jamal al-Din ibn Abd Allah, 2009, p. 226)”.

2. Hol bobidagi bayt

وَ عَامِلٌ ضَمَّنَ مَعْنَى الْفِعْلِ لَا

حُرُوفُهُ مُؤَخَّرًا لَنْ يَعْمَلَا

كَذَلِكَ لَيْتَ، كَأَنَّ، وَنَدْر

(Sulayman ibn Abd al-Aziz, n.d., p. 113) نَحْوُ: سَعِيدٌ مُسْتَقْرًا فِي هَجْرٍ

“Agar holni vujudga keltiruvchi feʼl maʼnosini va harflarini oʻz ichiga olgan grammatik boʻlak holdan keyin kelsa, unda hol keltirilishi mumkin, agar feʼl maʼnosini oʻz ichiga olib,

harflarini aks ettirmasa, holni omilidan oldinga o'tkazish mumkin emas. Masalan, أتمنى so'zi لييت ma'nosini, كأن esa يشبه ma'nosini o'z ichiga oladi, lekin harflarini aks ettirmaydi.

Va juda kam (nodir) hollarda omili tushiriib qoldirilgan gaplarda hol oldinga o'tadi: Sa'id – Hijrda turgan holda..."

Odatda hol so'zlari (masalan: qo'rqib, kulib, yugurib) jor-majrur (masalan: uyda, yo'lda) kabi joy ifodalaridan keyin keladi. Lekin ba'zida holat ifodasi jor-majrurdan oldin keladi, bu esa nodir holat deb e'tirof etiladi. Masalan:

سعيدٌ مستقرًا في حجر – Sa'id, Hijrda turgan holatda... (oldin hol, keyin joy)

زيدٌ قائمًا عندك – Zayd, sening yoningda tik turgan holatda... (Muhyi al-Din Abd al-Hamid, 2022, Vol. 2, p. 271).

Ibn Molik bu holatni "و ندر" (nadir, shoz) deb atab, qoidaga kiritmaslik kerakligini eslatib o'tmoqda.

Xulosa. Mazkur maqolada arab tili grammatikasining muhim manbalaridan biri hisoblangan Alfiya asaridagi metodologik yondashuvlar tahlil qilindi. Asar muallifi Ibn Molik grammatik qoidalarni she'riy shaklda bayon etgan bo'lsa-da, ularni izchil, aniq va mantiqiy tizim asosida joylashtirgani bilan ajralib turadi. Tadqiqot davomida muallif qoidalarni tushuntirishda turli metodlardan foydalangani, jumladan, ayrim grammatik shakllarning ustuvorligini ko'rsatish uchun so'z tartibini o'zgartirish, muayyan qoidalarni izohlashda arab qabilalari lahjalaridagi xususiyatlarga murojaat qilish hamda kam uchraydigan va nodir holatlarni alohida qayd etish kabi usullarni qo'llagani aniqlandi.

Shuningdek, asarda grammatik qoidalarining asosiy va ikkilamchi shakllari o'rtasidagi farqlar ko'rsatilib, zarurat tufayli qo'llanilishi mumkin bo'lgan variantlar ham misollar orqali bayon etilgan. Muallif ayrim qoidalarni izohlash jarayonida kam uchraydigan holatlar, dialektal farqlar hamda shoz (nodir) misollarni ham keltirib, arab tili grammatikasining nozik va murakkab jihatlarini ochib bergan. Bu esa asarning nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham katta ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, Alfiya asari arab tili grammatikasini o'rganishda muhim ilmiy manba bo'lib, undagi metodologik yondashuvlar qoidalarni tizimli ravishda anglashga yordam beradi. Ushbu asarni chuqur o'rganish talabalarga grammatik nazariyani puxta egallash, qoidalar o'rtasidagi bog'liqlikni tushunish hamda arab tilining lingvistik xususiyatlarini yanada chuqurroq anglash imkonini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ibn Malik, M.A. (2006). The Alfiyya of Ibn Malik. Alfiyyat Ibn Malik. – Cairo: Dar al-Hadith. – 160 p. (in Arabic)

2. Ibn Aqil, A.A. (1995). Ibn Aqil's Commentary on the Alfiyya of Ibn Malik. Sharh Ibn Aqil 'ala Alfiyyat Ibn Malik. – Beirut: Dar al-Fikr. – 448 p. (in Arabic)
3. Al-Ashmuni, H.A. (2000). Al-Ashmuni's Commentary on the Alfiyya of Ibn Malik with the Hashiya of al-Sabban. Sharh al-Ashmuni 'ala Alfiyyat Ibn Malik ma'a Hashiyat al-Sabban. – Beirut: Dar al-Kutub al-'Ilmiyya. – 384 p. (in Arabic)
4. Al-Makudi, M.M. (2003). Al-Makudi's Commentary on the Alfiyya of Ibn Malik. Sharh al-Makudi 'ala Alfiyyat Ibn Malik. – Beirut: Dar al-Kutub al-'Ilmiyya. – 416 p. (in Arabic)
5. Ibn Hisham, A.Y. (1997). The Clear Paths to the Alfiyya of Ibn Malik. Awdah al-Masalik ila Alfiyyat Ibn Malik. – Beirut: Dar al-Jil. – 360 p. (in Arabic)
6. Sulayman ibn Abd al-Aziz. (n.d.). The Alfiyya of Ibn Malik. Alfiyyat Ibn Malik. – Riyadh: Maktabat Dalil al-Minhaj. – pp. 90–91. (in Arabic)
7. Zayd Abd al-Rahman ibn Ali. (2005). Al-Makudi's Commentary on the Alfiyya of Ibn Malik. Sharh al-Makudi. – Beirut: al-Maktaba al-'Asriyya. – 118 p. (in Arabic).
8. Jamal al-Din ibn Abd Allah. (2009). Commentary on al-Kafiya and al-Shafiya. Sharh al-Kafiya wa al-Shafiya. – Beirut: Dar Ibn Kathir. – 380 p. (in Arabic).
9. Muhyi al-Din Abd al-Hamid. (2022). Ibn Aqil's Commentary on the Alfiyya of Ibn Malik. Sharh Ibn Aqil 'ala Alfiyyat Ibn Malik. – Damascus: Mu'assasat al-Risala. – 261 p. (in Arabic).